HUMANS

EN | RU | UZ

Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish siyosati

Oxirgi o'zgartirilgan: 28 Aprel, 2020

Umumiy qoidalar

«Humans»ning ushbu shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish siyosati (bundan buyon matnda – «Siyosat») shaxsga oid ma'lumot turlarini, Siz bizning «Humans» guruhimiz kompaniyalari (bundan buyon matnda birgalikda va alohida «Humans» deb yuritiladi) xizmat va servislaridan, bizning saytlarimiz va mobil ilovalarimizdan (bunday b§uyon matnda – «Servislar») foydalanganingizda bunday axborotni to'plash va ishlov berish usullarini belgilaydi.

Agar Siz ro'yxatdan yoki avtorizatsiyadan o'tsangiz, yoki bizning Servisimiz yoki Servislarimizdan (Siz foydalanadigan Servislar soniga qaramay, bundan keyin matnda ushbu termin ko'plik sonda ishlatiladi) foydalansangiz va ularda ushbu Siyosatga havola ko'rsatilgan bo'lsa, shaxsingizga oid ma'lumotga nisbatan ushbu Siyosat qo'llaniladi.

Agar Siz «Humans»ning biror bir Servis xizmatini ko’rsatish bo’yicha oferta shartlarini qabul qilgan bo’lsangiz, Siz Mijoz hisoblanasiz. Agar Servis ko’rsatish shartlarini qabul qilmay, Servislardan foydalansangiz, siz Foydalanuvchi hisoblanasiz. Ushbu Siyosatning maqsadlariga erishish uchun (agar unda boshqasi nazarda tutilgan bo’lmasa) Mijozlar va Foydalanuvchilar birgalikda Foydalanuvchilar deb nomlanadi.

Servislarimiz tegishli Servis ko'rsatish shartlarida belgilangan hududda taqdim qilinadi. Biz o'z faoliyatimizni, shu jumladan foydalanuvchilarning shaxsiga oid ma'lumotni to'plash va ulardan foydalanish ishlarini, hududida tegishli Servis taqdim etilayotgan davlatning talablariga muvofiq amalga oshiramiz. Turli davlatlarda qonunchilik hamda shaxsga oid ma'lumotlarni yig'ish va ulardan foydalanish standartlari bir-biridan farq qilishi, ular fuqaroligingiz bo'lgan yoki Siz yashab turgan mamlakatda qo'llaniladigan shaxsga oid ma'lumot talablariga mos kelmasligi mumkin. Servislarimizdan foydalanar ekansiz, shaxsingizga doir ma'lumotlarga nisbatan Siz Servisdan foydalana boshlaganingizda qabul qilgan taqdim qilish shartlariga muvofiq taqdim qilinayotgan Servis joylashgan mamlakat talablari qo'llanilishiga rozilik bildirasiz.

Ushbu siyosat:

Sizdan bevosita tegishli Servisdan foydalanish uchun, shuningdek telefon so'zlashuvlari, elektron pochta xatlari, Servis yordamida yo'llanadigan xatlar va o'rtamizdagi boshqa elektron xatlar orqali axborot xizmati ko'rsatishda olinadigan shaxsingizga oid ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu Siyosat shuningdek Siz Servisdan, saytlarimiz va mobil ilovalarimizdan foydalanganingizda avtomatik tarzda olinadigan ma'lumotlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Siz biz ishlov beradigan, o'zingizga tegishli bo'lgan ma'lumot mazmuni haqida hello@humans.uz elektron pochta manziliga rasmiy talab jo'natib, ma'lumot olishga haqlisiz.

Ushbu Siyosat quyidagi ma'lumotlarga nisbatan qo'llanilmaydi:

1. Uchinchi shaxslar tomonidan yig'ilgan, jumladan Servisga havola qilingan yoki u orqali ko'rish imkoni bo'lgan (shu jumladan Siz bizning Servisimiz yordamida jo'natgan xatlaringiz orqali ma'lumotni bevosita Sizdan oladigan to'lov operatorlari yoki ayrim xizmat bilan ta'minlovchilar) har qanday ilova yoki kontent orqali to'plangan axborot. Shaxsingizga doir ma'lumotlar uchinchi shaxslar tomonidan yig'ilishi va ulardan foydalanilishi qoidalari haqida ma'lumotni ushbu shaxslardan mustaqil ravishda olishingiz mumkin.

2. Xizmatlarni sotib olayotgan mijoz yoki o'z xizmatlarini taklif qilayotgan xizmatlarni yetkazib beruvchi tomonidan, chatlar yoki Servislar orqali tezkor xat almashuvining boshqa tizimlaridan foydalangan holda to'plangan ma'lumotlar.

BIZ SHU KABI HAR QANDAY MIJOZGA VA/YOKI XIZMATLARNI YETKAZIB BERUVCHIGA TAQDIM ETILGAN VA/YOKI ULAR TOMONIDAN SERVISLARIMIZ FUNKSIONALI ORQALI FOYDALANILADIGAN MA'LUMOTNING OSHKOR QILINISHI SABABLI YUZAGA KELADIGAN HAR QANDAY JAVOBGARLIKDAN OCHIQ RAVISHDA BOSH TORTAMIZ.

Bizning qoidalarimiz va Sizning shaxsingizga doir ma'lumotlaringiz bilan ishlashning amaliy usullari hamda unga ishlov berish tartibini tushunib olishingiz uchun ushbu Siyosatning mazmuni bilan e'tibor berib tanishib chiqishingizni so'raymiz. Agar biz qo'llayotgan tartibot va tajribalarga rozi bo'lmasangiz, Servislarimizdan foydalanmaslik huquqiga egasiz. Servislarimizdan foydalanish huquqiga ega bo'lib yoki ulardan foydalanayotib, bizning shaxsga doir ma'lumotga ishlov berish Siyosatimizga hamda Servisni taqdim etish Shartlarimizga rozi bo'lasiz. Ushbu Siyosatga vaqti-vaqti bilan o'zgarishlar kiritib turilishi mumkin (qarang: Shaxsga doir ma'lumotga ishlov berish Siyosatimizga kiritiladigan o'zgarishlar). Agar Siz biz tomondan kiritilgan o'zgarishlardan keyin Servisdan foydalanishda davom etsangiz, ushbu o'zgarishlarni qabul qilgan hisoblanasiz. Shuning uchun biz Sizdan Siyosat mazmunida o'zgarishlar bor-yo'qligini muntazam ravishda tekshirib turishingizni so'raymiz.

16 yoshgacha bo'lgan bolalar

Servisimiz 16 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallanmagan. 16 yoshgacha bo'lgan shaxslar bizning Servislarimizga yoki ular orqali ma'lumot o'tkazishga haqli emaslar. Biz 16 yoshgacha bo'lgan bolalardan shaxsiga doir ma'lumotni atayin qabul qilmaymiz. Agar Siz 16 yoshga to'lmagan bo'lsangiz, Servislarimizdan foydalanmasligingizni va Servislarga yoki ularning xizmatlari orqali ma'lumot o'tkazmasligingizni so'raymiz. Bundan tashqari, Servislardan ro'yxatdan o'tmaslikni, ular orqali xaridlar amalga oshirmaslikni, interaktiv va ochiq sharhlar xizmatlaridan foydalanmaslikni va bizga hech qanday shaxsiy ma'lumotingizni, jumladan ism va familiyangiz, manzilingiz, telefon raqamingiz, elektron pochtangiz manzili, shuningdek ishlatishingiz mumkin bo'lgan foydalanuvchi ismi yoki ro'yxatga olingan ismlarni taqdim etmasligingizni iltimos qilamiz. Agar 16 yoshgacha bo'lgan boladan ota-onasining roziligisiz uning shaxsiga doir ma'lumotni yig'ish yoki olish holati ma'lum bo'lsa, bunday ma'lumot o'chirib tashlanadi. Agar Siz 16 yoshgacha bo'lgan bola bizga ma'lumot taqdim etgan yoki u haqida ma'lumot taqdim etilgan, deb hisoblasangiz, bu haqda privacy@humans.net elektron pochta manziliga xabar bering.

Ma'lumot turlari

Biz bir necha turdagi shaxsingizga oid ma'lumotlarni yig'amiz:

1. Foydalanuvchilar haqida umumiy ma'lumotlar (familiya, ism, otasining ismi, shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari (Servisning turiga qarab), tug'ilgan sanasi, yashash joyi, telefon raqamlari, foto va foydalanuvchi tomonidan Servislardan foydalanish jarayonida mustaqil ravishda taqdim etilgan boshqa shaxsiy ma'lumotlar).

2. Servislarimizdan foydalanishda ishlatiladigan foydalanuvchi moslamalari, shu jumladan: IP manzillar, geolokatsion ma'lumotlar, moslama haqida ma'lumotlar (ishlab chiqaruvchi, operatsion tizim, IMEI, sim-kartaning identifikatsion raqami), foydalanuvchi tomonidan ishlatilayotgan ilovalar va veb-brauzerlar, Servisga kirish imkonini ta'minlayotgan telekom-provader haqida ma'lumotlar).

3. Foydalanuvchining Servislardagi faolligi haqida personallashtirilmagan ma'lumotlar, xususan bajarilgan harakat turi, bajarilgan harakat sanasi va vaqti, harakatning pullik yoki bepulligi, xizmatni yetkazib beruvchi; foydalanuvchi u orqali Servisga o'tgan va/yoki Servisdan o'tgan sahifaning url-manzili, Servisda sessiya davomliligi, sessiyaning boshlanish va tugash sanasi, qidiruv so'rovlari hamda foydalanuvchilarning Servisdagi qiziqishlari.

4. Foydalanuvchining Servisdagi kontaktlari haqida ma'lumotlar, jumladan uning telefon daftaridagi ma'lumotlar (telefon raqamlari va boshqa kontakt ma'lumotlari, kontaktning

foydalanuvchi bilan faolligi, foydalanuvchi bilan aloqa turlari).

5. Foydalanuvchining Servisdagi to'lov operatsiyalari haqida ma'lumotlar (bank kartasi ma'lumotlari, tranzaksiyalar haqida ma'lumot, tranzaktsiyani amalga oshirish sanasi, vaqti va joyi, to'lovli xizmat turi, xizmatning servis provayderi nomi).

6. Servisga boshqalar foydalana olishi uchun foydalanuvchi tomonidan joylashtirilgan, foydalanuvchi Servislarning boshqa foydalanuvchilari bilan yoki Servisdan foydalangan holda uchinchi shaxslar bilan almashadigan ma'lumotlar (postlar va kontent, boshqa postlarga yozilgan sharhlar).

7. Foydalanuvchi Servislar funktsionalidan foydalanishi sababli bizga ma'lum bo'ladigan boshqa ma'lumotlar.

Biz bunday ma'lumotlarni:

1. Siz ularni bizga taqdim qilganingizda, bevosita O'zingizdan;

2. Servis bo'ylab navigatsiya amalga oshirishingizga muvofiq avtomatik tarzda (avtomatik tarzda yig'iladigan ma'lumotlarga foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlar, IP-manzillar, shuningdek Cookie fayllari, veb-mayaklar va boshqa kuzatuv texnologiyalari yordamida olingan axborotlar kirishi mumkin);

3. Uchinchi shaxslardan, masalan, biznes hamkorlarimizdan (agar bizga bunday ma'lumot taqdim etilsa) olamiz.

1. Siz bizga taqdim qiladigan ma'lumotlar quyidagicha:

- Servislarimizda blanklarni to'ldirganingizda taqdim qiladigan ma'lumotlaringiz. Bunday ma'lumotlar jumlasiga Servislarimizdan foydalanish uchun ro'yxatdan o'tishda, «Humans» guruhi kompaniyalari Servis orqali taqdim etadigan xizmatlardan foydalanish imkonini olish uchun tegishli Servis taqdim qilish shartlarini qabul qilishda, materiallarni joylashtirishda, chatlarimizdan, MApp yoki tezkor xat almashish tizimlarining boshqa funktsionalidan foydalanishda, shuningdek qo'shimcha xizmatlar bo'yicha so'rov jo'natishda yoki profil yaratishda taqdim etiladigan axborotlar kiradi.

- Agar Siz Provayder bo'lsangiz, biz Sizdan ma'lum tasdiqlash axborotini, jumladan ism va familiyangiz, tug'ilgan sanangiz, elektron pochtangiz manzili, telefon raqamingiz, ijtimoiy sug'urtalash tizimi bo'yicha raqamingiz, bank hisob raqamingiz haqida ma'lumotlarni, shuningdek shaxsingizni aniqlash uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni so'rab olishga haqlimiz.

- Shuningdek, agar Siz biz moliyalashtirayotgan konkurslarda yoki reklama aksiyalarida qatnashayotgan bo'lsangiz, shuningdek Servisimiz bilan bog'liq muammo bo'yicha hisobot jo'natsangiz, biz Sizdan ma'lumot so'rab olishga haqlimiz.

- Agar biz bilan bog'langan bo'lsangiz, hisob ma'lumotlaringiz va korrespondensiyalaringiz nusxalari, (jumladan elektron pochta manzillari).
- Biz Sizdan tadqiqotlar o'tkazish uchun yoki marketing maqsadida to'ldirishingizni so'rab murojaat qilishimiz mumkin bo'lgan anketalar savollariga bergan javoblaringiz.
- Servislarimizdan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalaringiz hamda buyurtmalaringizni bajarish haqida ma'lumotlar. Servislarimiz orqali buyurtma joylashtirishdan oldin Sizdan moliyaviy ma'lumot taqdim etish so'ralishi mumkin.
- Servisdagi qidiruv so'rovlaringiz.
- Bundan tashqari, Siz Servislarda umumiy foydalanish zonalarida e'lon qilish yoki aks ettirish (bundan buyon matnda – "joylashtirish") uchun yoki Servislarning boshqa foydalanuvchilariga yoki uchinchi shaxslarga (bundan buyon birgalikda "Foydalanuvchi Kontenti" deb nomlanadi) yetkazish uchun ma'lumotlaringizni taqdim qilinishingiz mumkin. Siz Foydalanuvchi Kontentingizning joylashtirilishi va uchinchi shaxslarga yetkazilishi uchun barcha xavf-xatarni o'z zimmangizga olasiz. Biz ma'lum sahifalardan foydalanish imkonini cheklab qo'yishga haqli bo'lsakda, hech qanday xavfsizlik choralari to'liq himoya qilishni kafolatlamasligiga e'tiboringizni qaratamiz. Bundan tashqari, bizda Siz Foydalanuvchi Kontentingiz bilan almashishingiz mumkin bo'lgan Servisning boshqa foydalanuvchilarining harakatlarini nazorat qilish imkoni yo'q.

2. Ma'lumotlarni avtomatik yig'ish texnologiyalari orqali olinadigan ma'lumotlar.

Biz foydalanuvchining uskunasi haqida, shuningdek uning navigatsiya va Servislar bilan aloqa qilishi jarayonida amalga oshirgan harakatlari va Internet resurslarini qanday ko'rishi to'g'risida muayyan ma'lumotlarni avtomatik tarzda yig'ishga imkon beradigan texnologiyalarni qo'llaymiz. Ushbu ma'lumotlar jumladan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Servislarimizga qilgan tashriflaringiz haqida batafsil ma'lumot, jumladan trafik va turgan joyingiz to'g'risida, shuningdek protokollar va Siz foydalanish imkonini olgan va ulardan Servislarda foydalangan boshqa ma'lumot almashuvlari va resurslar haqida ma'lumot;
2. Kompyuter va internet birikmangiz haqida, jumladan IP manzilingiz, operatsion tizimingiz va brauzer turi to'g'risida ma'lumot;
3. Smartfoningiz, jumladan IMEI, operatsion tizim va h.k. haqida ma'lumot;
4. Servislarimiz orqali o'tkaziladigan ma'lumot va trafik.

Biz foydalanadigan ma'lumotlarni avtomatik yig'ish texnologiyalari qatoriga quyidagilar kirishi mumkin:

- Cookies fayllari (yoki Cookies brauzer fayllari). Cookie fayli – bu kompyuteringiz yoki smartfoningizning qattiq diskida joylashgan kichik bir fayl. Siz Cookie fayllarini qabul qilishdan voz kechishingiz mumkin. Buning uchun brauzerdagi tegishli parametrni yoqishingiz kerak. Biroq shu bilan birga, Servisimizning muayyan bo'limlaridan foydalanish imkoni ham yo'qolishi mumkin. Agar brauzeringiz Cookie fayllarini joylashtirishdan voz kechishga sozlangan bo'lmasa, unda Servislarimiz sahifalariga kirishingizda tizimimiz Cookie fayllarini saqlab qo'yadi.

- Flash Cookies fayllari. Servislarimizning muayyan xizmatlari uchun Local Stored Objects (yoki Flash Cookie) fayllaridan foydalanish talab etilishi mumkin. Ushbu fayllar Sizning qiziqishlaringiz va Servislarimiz bo'ylab navigatsiyalaringiz haqida ma'lumotlarni yig'ish va saqlash uchun qo'llaniladi. Flash Cookie fayllari Cookie fayllari uchun mo'ljallangan brauzer sozlamalari orqali boshqarilmaydi. Flash Cookie fayllari uchun xavfsizlik va maxfiylik parametrlaridan foydalanish haqida ma'lumot "Ma'lumotingizdan foydalanish va uni oshkor qilish variantlari" bo'limida keltirilgan.

- Veb-mayaklar. Servislarimiz sahifalari va elektron xatlarimiz veb-mayak (shaffof gif-fayllar, piksel teglari yoki bir pikselli gif-fayllar deb ham ataladi) deb nomlanuvchi kichik elektron fayllarni o'z ichiga olishi mumkin. Veb-mayaklar, masalan, ma'lum bir sahifalarga kirgan yoki elektron xatlarni ochgan foydalanuvchilarning sonini hisoblashga, shuningdek boshqa shunga o'xshash statistik ma'lumotlarni yig'ishga (masalan, veb-saytning muayyan bir kontentinining ommabopligini, tekshirish tizimi va serverlar yaxlitligini tahlil qilishga) imkon beradi.

Biz avtomatik ravishda yig'adigan ma'lumot statistik ma'lumotlardan iborat bo'lib, shaxsga doir ma'lumotning unga aloqasi yo'q. Biroq biz shaxsga doir ma'lumotni saqlab qo'yishimiz yoki uni ba'zi bir yo'llar bilan yiqqan yoki uchinchi shaxslardan olingan shaxsga oid ma'lumotlarimiz bilan o'zaro munosabatini aniqlashimiz mumkin. Ushbu choralar bizga Servislarimizning samaraliligini oshirishga va xizmatlarimizni yanada sifatli bo'lishiga va personallashishiga yordam beradi, jumladan quyidagi imkoniyatlar evaziga:

- Auditoriyamiz miqyosi va foydalanish patternlarini baholash.

- Qiziqishlaringiz haqida ma'lumotlarni saqlab, Servisimizni ehtiyojlaringizga mos keladigan qilib tayyorlash.

- Qidiruv tezligingizni oshirish.

- Servislarimizga qayta kirganingizda, Sizni tanib olish.

3. Uchinchi shaxslardan olinadigan ma'lumotlar

Siz uchinchi shaxslar xizmatlari va servislaridan foydalanganingizda yoki ulardan foydalanish maqsadida taqdim etgan shaxsingizga oid ma'lumotlarni biz Servislarimiz orqali yig'amiz va ulardan foydalanamiz. Biz faqat uchinchi shaxslarning xizmat va servislarini o'z Servislarimizda ishlatish imkoniyatini ta'minlash uchun muhim bo'lgan shaxsga oid ma'lumotlarni olamiz.

Maxfiylik

Ma'lumotlaringizdan foydalanish tartibi

Biz Siz haqingizdagi yoki Siz tomondan taqdim qilingan ma'lumotlardan, jumladan har qanday shaxsingizga oid ma'lumotdan, quyidagi maqsadlarda foydalanamiz:

- Sizga o'z Servislarimizni va ularning xizmatlarini taqdim qilish uchun.
- Siz so'ragan ma'lumot, mahsulot va xizmatlarni taqdim qilish hamda shu kabi ishlar Servislarimiz funksionalidan foydalanilgan holda amalga oshirilganida xaridor va sotuvchilarga yordam ko'rsatish uchun.
- Siz ma'lumotni taqdim qilishda ko'zlagan boshqa maqsadlarga erishish uchun.
- Foydalanuvchilar va Provayderlarni identifikatsiya qilish uchun
- Sizga «Humans»dagi hisobga olish yozuvingiz haqida elektron pochta, Servislar yoki matnli xat orqali xabar jo'natish uchun.
- Erishilgan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarimizni bajarish va o'z huquqlarimizni amalga oshirish, jumladan hisob taqdim etish hamda pul mablag'larini olish uchun.
- Servislarimiz, ularga kiritilayotgan o'zgarishlar hamda ular orqali taklif etilayotgan mahsulot va xizmatlar haqida Sizni xabardor qilish uchun.
- Servislarimizda interaktiv vositalardan foydalana olishingiz uchun.
- Mijozga xizmat ko'rsatish hamda Servislar sifatini yaxshilash uchun, shuningdek tahliliy, tadqiqiy va reklama maqsadlarida.
- Ma'lumot taqdim etish vaqtida Sizga xabar qilingan boshqa usullar orqali.
- Sizning roziligingiz bilan boshqa maqsadlarda.

Bizga shaxsingizda oid qanday bo'lmasin ma'lumotni taqdim qilar ekansiz, Servis orqali: pochta manziliga, elektron pochta manziliga va/yoki telefon raqamiga (telefon qo'ng'irog'i yoki matnli xabar) yo'naltiriladigan xabarlardan tashqari, pastda ko'rsatilgan har qanday yo'llar orqali xabarlar olishga roziligingizni bildirasiz.

Reklama aksiyalarimiz

Agar Siz Humans guruhi kompaniyalari elektron manzilingizdan hamda boshqa kontakt ma'lumotlaringizdan o'z xizmatlarini yoki boshqa provayder xizmatlarini reklama qilish uchun foydalanishini xohlamasangiz, tarqatmalar olishni rad etishingiz mumkin. Buning uchun ushbu xizmat taklif qilinganda "Opt Out"ning tegishli havolasini bosish, yoki boshqa vaqt Servisga kirib, hisobga olish yozuvi sahifasida foydalanuvchining sozlamalarini to'g'rilash, ya'ni tegishli katakchani belgilash kerak.

Agar biz Sizga elektron reklama xati jo'natgan bo'lsak, unga javoban Sizni tarqatmalar ro'yxatidan chiqarishni so'rab murojaat qilishingiz mumkin. Tarqatmalardan voz kechish «Humans» guruhi kompaniyalariga xizmat yoki mahsulotni xarid qilish yoki ulardan foydalanish, shuningdek boshqa operatsiyalar natijasida taqdim qilingan ma'lumotlarga, shuningdek saqlanishi amaldagi qonunchilik tomonidan ko'zda tutilgan ma'lumotlarga tatbiq qilinmaydi.

Cookies fayllari va boshqa kuzatish texnologiyalaridan uchinchi shaxslar foydalanishi

Biz uchinchi shaxslar bilan, masalan, internet reklama agentliklari, ijtimoiy tarmoqlar operatorlari yoki boshqa xizmat yetkazib beruvchilar bilan, ma'lumot almashishga haqlimiz. Shuningdek bunday uchinchi shaxslarga Siz Servislarimizdan ma'lum vaqt davomida foydalanganingiz haqida ma'lumotlarni yig'ishga ruxsat bera olamiz. Bu ularga Servislarimizda, shuningdek Siz foydalanishingiz mumkin bo'lgan boshqa veb-saytlar, ilovalar yoki moslamalarda Sizning qiziqishlaringizga mos reklamalarni ishlab chiqarish va aks ettirish uchun yordam beradi. Odatda (lekin har doim ham emas) biz bir-birimiz bilan almashadigan ma'lumot cookie fayllaridan foydalanish orqali yoki shunga o'xshash kuzatish texnologiyalari yordamida taqdim qilinadi. Ular Siz foydalanayotgan moslamani aniqlab oladi hamda turli ma'lumotlarni (masalan, tashriflar tahlili, brauzer turi, saytga yoki mobil ilovaga qilingan tashrif vaqti va sanasi) yig'ib boradi. Ushbu ma'lumot Servislarimizda yoki ular orqali, shuningdek boshqa veb-saytlarda yoki ilovalarda manzilli reklamani aks ettirish uchun foydalaniladi. Bunday ma'lumot biz yoki internet reklama agentliklari Siz onlayn tarzda ko'rayotgan reklama ko'proq qiziqishlaringizga mos kelishi uchun ishlatamiz.

Servisda ba'zi kontent yoki ba'zi ilovalarga, jumladan elektron to'lovlar texnologiyasiga, uchinchi shaxslar tomonidan, jumladan serverlar, internet kontenti provayderlari va ilova provayderlari tomonidan xizmat ko'rsatiladi. Bunday uchinchi shaxslar cookie fayllaridan (alohida yoki veb-mayaklar bilan birgalikda yoki boshqa kuzatuv texnologiyalari orqali) Servislarimizdan foydalanishingiz chog'ida Siz haqingizdagi ma'lumotlarni yig'ish uchun foydalanishadi. Ular tomonidan yig'iladigan ma'lumot shaxsingizga oid bo'lishi mumkin. Shuningdek ular Sizning ma'lum bir davr oralig'ida internetdagi, jumladan turli veb-saytlar va boshqa onlayn servislardagi faoliyatingiz haqida ma'lumotlarni, jumladan shaxingizga oid ma'lumotlarni ham yig'ishi mumkin. Biz bu kabi uchinchi shaxslarning kuzatish texnologiyalarini va ularni qo'llash tartibini nazorat qilmaymiz.

Kuzatish uchun ma'lumotlaringizni yig'ishdan voz kechish

Cookies fayllari va boshqa kuzatuv/yozuv vositalarini yo'q qilish yoki o'chirib qo'yish bo'yicha qo'llanmalar bilan o'z mobil moslamangizda yoki brauzeringizning texnik ma'lumotida tanishib olishingiz mumkin. Ba'zi bir mobil moslamalarda kuzatuv mexanizmlarini yo'q qilish yoki o'chirib qo'yish ko'zda tutilmagan bo'lishi mumkin. Shunga e'tibor beringki, cookies fayllari va/yoki boshqa kuzatuv vositalari o'chirib qo'yilsa, «Humans» guruhi kompaniyalari va uning tahlil bo'yicha mutaxassislari Sizning Servislardan foydalanish bilan bog'liq brauzerdagi faoliyatingizni kuzatish imkonidan mahrum bo'ladi. Biroq shu bilan birga, Servisning ba'zi xizmatlaridan foydalanish imkoni ham yo'qolishi mumkin. Cookies fayllarini saqlab qolish va boshqa kuzatuv/yozuv vositalaridan foydalanishdan bosh tortish bilan bog'liq barcha savollarni bizga, privacy@humans.net elektron pochta manzilimizga jo'natishingizni so'raymiz. O'z Foydalanuvchilarimizning maxfiylik borasidagi manfaatlarini hurmat qilishimizga qaramay, biz Sizning brauzeringiz yoki moslamangizdan kelgan "Kuzatilmasin" signaliga javob bera olmaymiz.

Ma'lumotlaringizni oshkor qilish

Biz hech qanday cheklovlarsiz o'z foydalanuvchilarimiz to'g'risidagi umumlashtirilgan ma'lumotni, shuningdek maxfiy bo'lmagan ma'lumotlarni ochishga haqlimiz.

Biz shaxsingizga oid bo'lgan, o'zimiz yiqqan yoki quyidagi Siyosatda ta'riflangan tartibda Siz tomondan taqdim etilgan ma'lumotlarni quyidagi holatlarda oshkor qilishga haqlimiz:

- Keng jamoatchilikka hamda Servisning boshqa qatnashchilariga. Siz Servisning umumiy foydalanish zonalarida joylashtirgan Foydalanuvchi kontenti va boshqa kontentlar Servisning boshqa foydalanuvchilariga hamda boshqa shaxslarga ko'rinadi. Agar Siz shaxsingizga oid ma'lumot barchaga ko'rinishini istamasangiz, bunday ma'lumotni taqdim qilmasligingizni so'raymiz. Bundan tashqari, agar Siz blogimizda foydalanuvchi materiallarini joylashtirsangiz yoki ijtimoiy tarmoqlarimiz sahifalarida sharh qoldirsangiz, Sizning ma'lumotingiz, aynan ism va familiyangiz, yashayotgan mamlakatingiz va yozgan sharhlaringiz Servislarimizda va ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarimizda aks etishi mumkin.

- Servisning boshqa foydalanuvchilariga. Biz ma'lumotlaringizni Siz Servislarda aloqa qiladigan yoki o'zaro munosabatda bo'ladigan uchinchi shaxslar bilan, masalan, Provayder bilan almashamiz. Siz kim bilan aloqa qilish va qanday ma'lumotni almashish haqida mustaqil ravishda qaror qabul qilasiz.

- So'rovingiz bo'yicha uchinchi shaxslarga. Misol uchun, Sizga elektron xat, matnli xabar yoki turli ijtimoiy tarmoqlar orqali kontent yoki o'z harakatlaringizni Servisda do'stlaringiz bilan o'rtoqlashish imkoniyati berilishi mumkin.

- Sizga qiziq bo'lishi mumkin bo'lgan mahsulot va xizmatlarni taklif qilayotgan uchinchi shaxslarga (ixtiyoringizga qarab).

- Kontragentlar, xizmatlar yetkazib beruvchilar hamda biz o'z faoliyatimizni qo'llab-quvvatlashimiz uchun hamkorlik qiladigan uchinchi shaxslarga.

- Aktivlarning birikishi, ajralib chiqishi, restrukturizatsiya qilinishi, qayta tashkil etilishi, tarqatib yuborilishi, shuningdek ularning boshqa ko'rinishda sotilishi yoki qisman yoki butunlay boshqaga o'tkazilishi (xoh u oddiy faoliyat doirasida, xoh bankrotlik, tugatish va boshqa shunga o'xshash ishlar bo'yicha sudda ko'rilayotgan ishlar jarayonida (bizda saqlanayotgan Servis foydalanuvchilarining shaxsiga doir ma'lumotlari o'tkazilayotgan aktivlar tarkibiga kirgan hollarda) bo'lsin) munosabati bilan uchinchi shaxslarga;
- Siz ko'zlab taqdim etgan maqsadlarga erishish uchun;
- Ma'lumotni taqdim etish paytida Siz xabardor qilingan boshqa maqsadlarda; va
- Sizning roziligingiz bilan.

Siz shaxsingizga oid ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga yetkazishdan bosh tortishingiz mumkin. Buning uchun privacy@humans.net elektron pochta manziliga murojaat qilishingiz kerak. Shunga e'tibor beringki, shaxsingizga oid ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga berishning imkoni bo'lmasa, Siz Servisimiz orqali uchinchi shaxslar xizmatlaridan foydalana olmaysiz.

Agar hattoki o'z ma'lumotlaringizni, mazkur Siyosatning ushbu bo'limida ta'riflanganidek, uchinchi shaxslarga berishga rozi bo'lmasangiz ham, Biz shaxsingizga oid ma'lumotlarni quyidagi hollarda oshkor qilishga haqlimiz:

- Sud qarorini, sud buyrug'ini bajarish yoki qonunga amal qilish, jumladan yuridik va normativ majburiyatlarni bajarish doirasida.
- Bizning muayyan Servisdan foydalanish shartlarimizni yoki ular asos qilib keltirgan boshqa bitim va/yoki siyosatlarni qo'llash yoki ularning bajarilishini ta'minlash uchun.
- Agar ma'lumotni oshkor qilish «Humans» guruhi kompaniyalari, bizning mijozlarimiz, xizmat yetkazib beruvchilar va boshqa shaxslarning huquqlarini, mol-mulklarini yoki xavfsizligini himoya qilish uchun zarur va maqsadga muvofiq, deb hisoblasak. Bunga firibgarlikdan himoya qilish va kredit xavfini tushirish maqsadida boshqa kompaniyalar va tashkilotlar bilan ma'lumot almashish kiradi.

Biz bir necha davlatlar hududida o'z affillangan jamiyatlarimizga ega bo'lgan xalqaro kompaniyamiz. Servislarni ishlashini ta'minlash uchun biz sizning shaxsingizga oid ma'lumotlarni affillangan kompaniyalarimizga, jumladan foydalanuvchilarning informatsion va texnik yordam bilan ta'minlash, Servislarning informatsion tizimlariga texnik tomondan xizmat ko'rsatish, o'rtamizda kelishilgan bitimni bajarish maqsadlarida yuborishimiz mumkin.

Affillangan kompaniyalar o'rtasida ma'lumot yuborilishida biz guruhimiz kompaniyalarining barchasida shaxsingizga oid ma'lumotlarni himoya qilishning texnik, ma'muriy va tashkiliy choralarini ishlatishni kafolatlaymiz.

Ma'lumotingizdan foydalanish prinsiplari

Humans faqat kompaniya Servislaridan foydalanishingiz uchun va Servislarni ishlatish va rivojlantirishni ta'minlash uchun zarur va yetarli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlaringizni yig'ib, ulardan foydalanadi.

Siz mazkur Siyosatda ko'rsatilgan usullar orqali bizga yuboriladigan shaxsingizga oid ma'lumotlarni mustaqil ravishda boshqarishingiz mumkin. Humans shaxsingizga oid ma'lumotdan uni ishlatish, dolzarblashtirish, o'zgartirish va o'chirib tashlash maqsadlarida foydalana olishingizni kafolatlaydi. Shaxsingizga oid ma'lumotni yig'ish va undan foydalanish bilan bog'liq barcha savollar bo'yicha privacy@humans.net elektron pochta manziliga murojaat qilishingiz mumkin.

Biz shaxsingizga oid ma'lumotni rasmiy talab bilan murojaat qilsangiz yoki Servislardan foydalanishdan voz kechsangiz, o'chirib tashlaymiz.

GDPRning qo'llanilishi

Biz Servislar ko'rsatishning tegishli shartlarida ko'rsatilgan hududlarda o'z Servislarimizni taqdim qilamiz. Biz Servislarimizning asosiy foydalanuvchilari hududida u yoki bu Servisdan foydalanish imkoni bo'lgan davlat fuqarolari bo'ladi, deb hisoblaymiz. Shu sababli shaxsga oid ma'lumotning himoyasi va xavsizligini muayyan davlat talablariga muvofiq amalga oshiramiz.

Ayni damda bizning Servislarimiz Yevropa Ittifoqi hududida taqdim etilmayapti va ushbu hududda yashovchi foydalanuvchilarning e'tiborini jalb qilish hamda ular orasida Servislarni tatbiq etish maqsad qilinmagan. Servislarimizning birortasi GDPR maqsadlari uchun ma'lumotlarni nazorat qilmaydi. Ammo texnik tomondan Servislarimizdan ularni to'liq ko'lamli taqdim qilish bo'yicha biror bir kafolatsiz Yevropa Ittifoqi va/yoki Yevropa Ittifoqi hududida bo'lib turgan kishilar foydalana olishi mumkin.

Biz foydalanuvchilarga ularning shaxsiga oid ma'lumotlarni quyidagicha boshqarish va himoya qilish huquqini beramiz:

1. Ma'lumotdan foydalanish huquqi. Rasmiy talabingiz bo'yicha Sizga bizda qanday shaxsingizga oid ma'lumotlar borligi, biz ulardan qanday foydalanishimiz, qanday uchinchi shaxslarga va qanday maqsadlarda berishimiz haqida ma'lumotlarni taqdim qilamiz.

2. Ma'lumotni dolzarblashtirish huquqi. Agar bizdagi ma'lumotlar noto'g'ri yoki eskirgan, deb hisoblasangiz, biz Sizning rasmiy talabingizga binoan shaxsingizga oid ma'lumotlarga kerakli o'zgarishlarni kiritamiz va/yoki eskirgan yoki dolzarbligi yo'qolgan ma'lumotlarni o'chirib tashlaymiz.

3. Uchinchi shaxslardan, masalan, biznes hamkorlarimizdan (agar bizga bunday ma'lumot taqdim etilsa) olamiz.

4. Unutib yuborish huquqi. Sizning rasmiy talabingizga binoan bizda bo'lgan barcha shaxsingizga oid ma'lumotlar o'chirib yuboriladi va ulardan foydalanish to'xtatiladi (ma'lumotdan foydalanish majburiy shartlarni bajarish uchun zarur bo'lgan holatlar bundan mustasno). Biz shuningdek mazkur Siyosatga muvofiq holda shaxsingizga oid ma'lumotlar yuborilgan barcha affillangan shaxslar va Servislarni shaxsingizga oid ma'lumotlarni o'chirib tashlash va ulardan foydalanishni to'xtatish zarurligi haqida xabardor qilamiz.

Shunga e'tiboringizni qaratamizki, biz va bizning affillangan kompaniyalarimiz shaxsingizga oid ma'lumotlarni o'chirib tashlasak va ulardan foydalanishni to'xtatsak, Siz keyinchalik Servislarimizning birortasidan foydalana olmaysiz.

Siz shaxsingizga oid ma'lumotni boshqarish bo'yicha rasmiy talabni o'zingizga qulay payt privacy@humans.net elektron pochta manziliga jo'natishingiz mumkin.

Ma'lumotlarni himoya qilish choralari

Siz shaxsingizga oid ma'lumotlarni ko'rish, ularga o'zgarishlar kiritish huquqiga egasiz. Buning uchun hisobga olish yozuvingiz sahifasidagi Servisga kirishingiz kerak.

Shuningdek Siz privacy@humans.net elektron pochtamiz manziliga oldin bizga taqdim etilgan har qanday shaxsingizga oid ma'lumotdan foydalanish, uni o'zgartirish yoki o'chirib tashlashni so'rab rasmiy talab jo'natishingiz mumkin. Biz shaxsingizga oid ma'lumotni faqat hisobga olish yozuvi bilan birga o'chirib tashlashimiz mumkin. Agar biz Siz kiritmoqchi bo'lgan o'zgartirishlar qonun buzilishiga yoki ma'lumot ishonchsizligiga olib keladi, deb hisoblasak, bunday rasmiy talabingizni qoniqtirmaslikka haqlimiz.

Agar Siz Foydalanuvchi Kontentingizni Servislardan o'chirib tashlasangiz, uning nusxalari keshlangan va arxivlangan sahifalarda ko'rinib turishi, shuningdek Servisning boshqa foydalanuvchilari tomonidan nusxa qilinishi yoki saqlanishi mumkin. Servislarga taqdim etiladigan tegishli ma'lumotlar (jumladan Foydalanuvchi Kontenti) va ulardan foydalanish tegishli Servislarni taqdim qilish shartlariga ko'ra tartibga solinadi.

Ma'lumotlaringizdan foydalanish va ularni oshkor qilish turlari

Biz Siz taqdim qilayotgan shaxsingizga oid ma'lumotlarga ishlov berishning turli variantlarini Sizga taklif qilamiz. Biz ma'lumotlaringizni nazorat qilish uchun Sizga imkon yaratadigan mexanizmlarni ishlab chiqdik.

- Kuzatish texnologiyalari. Brauzeringizning moslamalarida barcha Cookie fayllarini yoki ularning bir nechtasini o'chirib qo'yishingiz yoki ulardan foydalanish haqida “ogohlantirish”larni yoqib qo'yishingiz mumkin. Flash Cookie sozlamalaringizni boshqarish haqida ma'lumotni Adobe kompaniyasi veb-saytida Flash Player sozlamalari sahifasida topasiz.

Shunga e'tibor qaratingki, Cookie fayllari o'chirilsa yoki ulardan voz kechilsa, veb-saytning ba'zi bir qismlari ishlamasligi yoki kerakli darajada ishlamay qolishi mumkin. Sizga manzilli marketingni mobil moslamangiz sozlamalarida cheklab qo'yish imkoni berilishi mumkin. Buning uchun "reklama kuzatuvini cheklash" ("limit ad tracking") (iOS uchun) yoki "personallashgan reklamadan voz kechish" ("opt-out of interest based ads") (Android uchun) opsiyasini tanlash kerak. Manzilli marketing va ba'zi reklama e'lonlaridan voz kechish usullari haqida batafsilroq ma'lumotni Internet tarmog'idagi reklama bo'yicha tashabbusning http://www.networkadvertising.org/choices saytida va/yoki Interaktiv raqamli reklama Yevropa alyansining https://www.aboutads.info/choices saytida topishingiz mumkin. Ba'zi hollarda, agar brauzer Cookie fayllarini blokirovka qilishga sozlanmagan bo'lsa, bunday reklama e'lonlarini rad qilib bo'lmaydi. Bundan tashqari, boshqa moslamadan foydalanilganda, boshqa brauzerga o'tilganda yoki Cookie fayli o'chirib tashlanganda, rad etish algoritmini qaytadan bajarishingizga to'g'ri kelishi mumkin. Siz shuningdek mobil reklama tarmoqlaridan tushayotgan ba'zi manzilli reklama e'lonlaridan (lekin hammasidan emas) voz kechishingiz mumkin. Buning uchun http://youradchoices.com/appchoices saytiga kirib, AppChoices mobil ilovasini yuklab olishingiz kerak.

Shaxsingizga oid ma'lumotlarni «Humans» guruhi kompaniyalari tomonidan himoya qilinishini ta'minlash

Shaxsingizga oid ma'lumot bizning tasarrufimizda bo'lgan davrda uning tasodifiy, noqonuniy yoki ijozatsiz yo'q qilinishidan, yo'qotib qo'yilishidan, o'zgartirilishidan, foydalanilishidan yoki oshkor qilinishidan himoya qilish uchun ishlab chiqilgan bir qator ma'muriy, texnik va jismoniy xavfsizlik choralarini qo'llaymiz.

Ma'lumotlarni himoya qilish, saqlash va o'tkazish

Biz shaxsingizga oid ma'lumotni tasodifan yo'qolib qolishidan, ijozatingizsiz undan foydalanilishidan, uni o'zgartirilishidan, oshkor qilinishidan himoya qilish uchun ishlab chiqilgan choralarni ishga soldik. Afsuski, internet orqali ma'lumot o'tkazish to'la xavfsiz, deb bo'lmaydi. Biz shaxsingizga oid ma'lumotlarni himoya qilish uchun butun kuchimizni ishga solsakda, bizning Servisimiz orqali o'tkaziladigan bunday ma'lumotlarning himoyasini kafolatlamaymiz. Shaxsingizga oid ma'lumotlarni o'tkazishdagi barcha xavf-xatarni Siz o'z zimmangizni olasiz. Biz Servislarimizda ko'zda tutilgan maxfiylik sozlamalarini yoki xavfsizlik choralarini chetlab o'tib amalga oshirilgan ishlar uchun javobgar emasmiz.

Ma'lumotlaringizning xavfsizligi va himoyasi O'zingizga ham bog'liq. Agar biz Sizga Servislarimizning ma'lum bo'limlaridan foydalanish uchun parol taqdim qilgan bo'lsak (yoki parolni o'zingiz tanlagan bo'lsangiz), ushbu parolning maxfiyligi uchun o'zingiz javobgarsiz. Biz

Sizdan hech kimga ushbu parolni oshkor qilmasligingizni so'raymiz. Biz Sizdan e'lonlar taxtasi kabi Servisning umumiy foydalanish zonalarida ma'lumot joylashtirish chog'ida ogoh bo'lishingizni qattiq iltimos qilamiz. Umumiy foydalanish zonalarida almashiladigan ma'lumotlar Servisning barcha foydalanuvchilari tomonidan ko'rilishi mumkin.

Boshqa veb-saytlar va Servislarga havolalar

Servis veb-saytlarga yoki bizning ish hamkorlarimiz yoki reklama beruvchilarimiz bo'lgan uchinchi shaxslarning veb-saytlaridan, shuningdek ijtimoiy tarmoqlardan havolalarni o'z ichiga olishi mumkin, foydalanuvchilarimiz uchinchi shaxslar veb-saytlarida havolalar joylashtirishlari mumkin. Agar Siz havola bo'ylab bunday veb-saytlarning biriga o'tayotgan bo'lsangiz, ushbu veb-saytlarga nisbatan ularning o'ziga qarashli bo'lgan shaxsga doir ma'lumotga ishlov berish siyosati qo'llanilishi mumkin; biz bunday siyosatning mazmuni uchun javobgar emasmiz. Biz sizga bunday veb-saytlardan foydalanish shartlari va ularning shaxsga oid ma'lumotlarga ishlov berish siyosati bilan tanishib chiqishingizni qat'iy tavsiya qilamiz; shunday qilib Siz ular tomonidan qo'llanilayotgan ma'lumotni yig'ish, almashish va undan foydalanish haqida o'zingizda tushuncha paydo qilasiz. Biz uchinchi shaxslar qabul qilgan shaxsga oid ma'lumotlarga ishlov berish tajribasiga hamda ularning veb-saytlari mazmuniga javobgar emasmiz.

Shaxsga oid ma'lumotga ishlov berish siyosatimizga kiritiladigan o'zgarishlar

Bizning prinsiplarimizda shaxsga oid ma'lumotlarga ishlov berish Siyosatiga kiritiladigan barcha o'zgarishlarni, shuningdek bunday o'zgarishlarning Servisda va Veb-saytning uy sahifasida kiritilishi haqida xabarlarni e'lon qilish ko'zlangan. Agar biz o'z foydalanuvchilarimizning shaxsiga oid ma'lumotlariga ishlov berish tartibiga muhim o'zgarishlar kiritsak, biz Sizning hisobga olish yozuvingizda ko'rsatilgan yoki Siz bizni Servis yoki veb-saytning uy sahifasi orqali xabardor qilgan elektron pochtangizning asosiy manziliga tegishli xabar jo'natamiz. Shaxsga oid ma'lumotga ishlov berish siyosatining oxirgi marta qayta ko'rilgan sanasi sahifaning tepa qismida ko'rsatiladi. Siz bizga ayni vaqtda ishlab turgan elektron pochtangiz manzilini taqdim qilish, shuningdek Servisimiz va mazkur Shaxsga oid ma'lumotga ishlov berish siyosatiga o'zgarishlar kiritilgan-kiritilmaganligini tez-tez tekshirib turish uchun javobgarsiz.

Aloqa ma'lumotlari

Ushbu shaxsga oid ma'lumotga ishlov berish Siyosati hamda bizning shaxsga oid ma'lumot bilan munosabatda bo'lish amaliyotimiz bo'yicha barcha savol va izohlaringizni privacy@humans.net elektron pochta manziliga yuboring.